

YAQIN SHARQDAGI GEOSIYOSIY KESKINLIKlardA TURKIYA-ERON HAMKORLIGI

Ochilxonov Abdulazizzon Hoshimxon o‘g‘li

Toshkent amaliy fanlar universiteti xodimi

E-mail: abdulazizzonhoshimxonovich@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yaqin Sharqdagi ko‘p qatlamlı mojarolar fonida Turkiya va Eron o‘rtasidagi “raqobat ichidagi hamkorlik” fenomenini nazariy va amaliy dalillar asosida yoritiladi. G‘azo urushi, Eron-Isroil keskinlashuvi, Livandagi Hizbulloh omili, Qizil dengizdagi dengiz xavfsizligi, shuningdek, Suriya va Iroq shimolidagi kuchlar muvozanati ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik va raqobatda namoyon bo‘ladi. Turkiya NATO a’zoligi va mustaqil tashqi siyosatni uyg‘unlashtirar ekan, Iroq va Suriya shimolida PKK/YPGga qarshi chuqur chegaraoldi operatsiyalarini yuritadi; Eron esa “qarshilik o‘qi” strategiyasi doirasida Suriya-Iroq-Livan yo‘lagini saqlab, proksi tarmoqlar orqali ta’sirini mustahkamlaydi. Astana formati mojaroni boshqarishning mexanizmi sifatida talqin qilinadi: tomonlar bir-birining “qizil chiziqlari”ni tan olgan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘qnashuv xatarini pasaytiradi. Kurd masalasi ikki davlatni vaqt-vaqt bilan yaqinlashtirsa, geoiqtisodiy bog‘liqlik (gaz, tranzit va savdo yo‘laklari) sanksiyalar bosimi sharoitida pragmatik kelishuvlarni rag‘batlantiradi. Natijada, Turkiya-Eron munosabatlari o‘zari hamkorlik mintqa xavfsizlik va barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. Yaqin Sharq, Turkiya, Eron, geosiyosat, hamkorlik, raqobat, Astana, Suriya, Iroq, PKK, Hizbulloh, proksi, energetika, diplomatiya, xavfsizlik.

KIRISH

Yaqin Sharqdagi geosiyosiy keskinliklar bugun bir-birini to‘ldiruvchi bir nechta frontlarda - G‘azo urushi, Eron-Isroil to‘qnashuvi, Livan bo‘ylab Hizbulloh bilan mojarolar, Qizil dengizdagi dengiz xavfsizligi, Suriya va Iroqdagagi kuchlar muvozanati hamda Turkiyaning shimoliy Suriya-Iroq chizig‘idagi harbiy-siyosiy o‘yini - o‘zaro bog‘liq zanjir sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yaqin Sharqdagi keskin jarayonlarda Turkiya va Eronning ahamiyati beqiyosdir, chunki ikki davlat ham tarixiy, diniy va geostrategik omillar bois mintaqaviy kuch markazlari sifatida maydonga chiqmoqda. Eron o‘zining “qarshilik o‘qi” deb ataladigan siyosati orqali Livan, Suriya, Iroq va Yaman hududlarida proksi kuchlar bilan faoliyat yuritadi va shu orqali Isroilga qarshi hamda AQShning Fors ko‘rfazidagi pozitsiyalariga bosim o‘tkazadi. Turkiya esa NATO a’zosi bo‘lishiga qaramay, ko‘pincha mustaqil tashqi siyosat yuritadi; u shimoliy Suriya va Iroqda o‘z xavfsizlik zonalarini kengaytirishga, Qizil dengiz va Kavkazdagagi savdo yo‘laklarida ishtirok etishga hamda mintaqada diplomatik

vositachilik qilishga urinmoqda. Shu ma'noda, ikki davlatning harakatlari mintaqasi dinamikasini muvozanatlashtiruvchi va ko'pincha bir-biriga raqobat qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Turkiya va Eron Yaqin Sharqda ko'pincha raqib sifatida ko'rilsa-da, keskinlik davrlarida ular xavfsizlik, diplomatiya va energetikada pragmatik hamkorlik qilishga majbur bo'ladi. Bu hamkorlikni to'liq ittifoq sifatida emas, balki "raqobat ichidagi hamkorlik" deb atash mumkin, ya'ni, tomonlar ayrim maydonlarda bir-birini tiyib turadi, boshqa sohalarda esa manfaatlar kesishgan nuqtalarda kelishuvga erishadi. Yaqin Sharq mintaqasi bo'yicha mutaxassis Galip Dalay fikriga ko'ra "Turkiya-Eron munosabatlari doimo uchta elementni o'zida birlashtiradi: bir tomonda yaqin hamkorlik, ikkinchi tomonda raqobat, uchinchi tomonda esa ziddiyat. Shu jihat bilan ular mintaqadagi eng murakkab va ko'p qatlamlı diplomatik aloqlardan biri hisoblanadi". Shu jihatdan, Turkiya va Eronning ahamiyati Yaqin Sharqdagi har qanday "katta kelishuv" yoki barqarorlikni ta'minlashda asosiy o'rin egallaydi.

ASOSIY QISM

M. Nishonovning "XX asrda vujudga kelib, to shu kunga qadar o'z yechimini to'la-tekis topmagan xalqaro muammolardan biri - Yaqin Sharq muammosidir" degan fikri chuqur ilmiy tahlil talab qiladi.[2] Darhaqiqat, Yaqin Sharq mojarosi XX asr boshida, xususan Birinchi jahon urushi davrida Usmoniy imperiyasining parchalanganidan so'ng va mustamlakachi davlatlar chizib bergen sun'iy chegaralar asosida shakllandi. Aynan shu davrdan boshlab Falastin-Isroil nizosi, chegaraviy tortishuvlar, diniy va etnik qarama-qarshiliklar, shuningdek, energetik resurslar ustidan kurash mintaqaning asosiy geosiyosiy muammolariga aylandi. So'nggi yillarda Yaqin Sharqdagi geosiyosiy ziddiyat sharoitida Turkiya va Eron o'rtasidagi munosabatlari murakkablashdi. Harbiy maydondagi hamkorlik kamroq, ko'proq raqobat yuzaga keldi. Biroq bu raqobat bilan bir qatorda muayyan hamkorlik maydonlari ham mavjud. Suriya masalasi Turkiya va Eronni bir vaqtning o'zida raqib ham, hamkor ham qildi. Anqara Bashar Asad rejimiga qarshi muxolifatni qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, Tehron Asadning asosiy ittifoqchisi sifatida harbiy va moliyaviy yordam ko'rsatdi. 2017-yildan boshlab Rossiya vositachiligidagi Astana jarayoni doirasida ikki davlat mintaqada harbiy harakatlarni muvofiqlashtirish, terrorizmga qarshi kurash va hududiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha kelishuvlarga erishdi. Bu jarayon Yaqin Sharqda ko'p tomonlama diplomatiyaning noyob namunasi sifatida baholangan.[3] Biroq Suriyadagi siyosiy vaziyat taranglashib, hukumatning to'satdan qulashi Turkiyaga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Turkiya Bosh vaziri Rajab Toyyib Erdo'g'an Suriyadagi vaziyatni Turkiyaning ichki muammosi deb ta'rifladi.[4] Hozrigi davrda Astana sammitini - harbiy ittifoq emas, o'rnatilgan aloqadorlik mexanizmi sifatida ta'riflash mumkin. U tomonlarga to'g'ridan-to'g'ri to'qnashuv xavfini kamaytirib, har biri uchun muhim bo'lgan "qizil chiziqlar"ni bir-biriga eslatish imkonini bermoqda.

Iraq shimoli va Suriya shimolidagi harbiy faoliyat masalasi Turkiya va Eron munosabatlarida o‘ta nozik nuqtalardan biri hisoblanadi. Professor Burju O‘zchelik Eron va Turkiyaning Iraq Kurdistoni manevri nomli maqolasida “Iraq Kurdistoni bu hududda Turkiya va Eron uzoq vaqtan beri kurd separatistlariga qarshi ittifoqchi bo‘lib kelgan, biroq oxirgi yillarda ular hududdagi mahalliy guruhlar orqali to‘qnashuv holatlariga duch kelmoqda”deb hisoblaydi. [5]

Turkiya so‘nggi o‘n yillikda PKK va YPGga qarshi “Chaqmoq zarbasi” (Operation Lightning Claw), “Panjara yo‘lbarsi” (Operation Claw-Tiger) kabi qator harbiy amaliyotlar o‘tkazdi. Bu operatsiyalar doirasida Turkiya qo‘shinlari Iraqning Dohuk va Erbil yaqinida, xususan Kurdiston Demokratik Partiyasi (KDP) nazorati ostidagi hududlarda o‘nlab harbiy bazalar tashkil etdi. Bu jarayon mahalliy kurd hukumatining ma’lum darajada roziligi bilan amalga oshirilgan, chunki KDP ham PKK bilan siyosiy raqobatdoshdir. [6]

Eron esa ko‘proq AQShning Iroqdagagi harbiy bazalariga qarshi faoliyat yuritib, o‘zining ta’sirini mustahkamlashga intildi. Shu bilan birga, Tehron ba’zi paytlarda Turkiya harakatlarini Iraq suverenitetiga tajovuz sifatida baholab, ogohlantirishlar berdi. Masalan, 2020-2023 yillarda Turkiya PKK lagerlariga kamida uch marta havo zarbasi uyushtirganida, Eron tarafdar kuchlari bu jarayonni tanqid qilib, “hududiy barqarorlik buzilishi”ni ta’kidladi. Shu tariqa, Iraq va Suriya shimolidagi jarayonlar Turkiya va Eronni bir vaqtning o‘zida hamkorlik va qarama-qarshilik maydoniga olib keldi. Kurd masalasi ularni birlashtirsa, hududiy siyosiy ta’sir va mahalliy guruhlar ustidan nazorat masalasi ularga o‘zaro raqobat olib kelmoqda. Doha universiteti xavfsizlik tadqiqotlari bo‘yicha dotsenti Muhanad Selumning fikrlari Eronning mintaqaviy strategiyasini chuqurroq anglashga yordam beradi. Unga ko‘ra, Iraq Eron uchun nafaqat chegaradosh qo‘shni, balki Suriya va Livandagi asosiy ittifoqchilarga ta’sir ko‘rsatishning strategik ko‘prigi hisoblanadi. Ayniqsa, Damashqdagi Asad rejimi va Livandagi Hizbulloh harakati Tehronning geosiyosiy raqobatida markaziy o‘rin tutadi. Selum ta’kidlaganidek, “Iraq orqali Tehron Suriya va Livandagi ittifoqdoshlari mos ravishda Asad rejimi va Hizbullohga ta’sir o‘tkazish va quruqlik yo‘lagini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu orqali u o‘zining mintaqaviy qudratini mustahkamladi va Yaqin Sharq bo‘ylab qo‘shni ta’sir doirasini yaratdi” [7]. Bu yondashuv Eronning “Shialar yarim oy doirasi” konsepsiyasiga mos keladi. Tehron Bag‘dod, Damashq va Bayrut o‘rtasidagi quruqlik yo‘lagini ushlab qolish orqali mintaqada nafaqat siyosiy, balki harbiy logistik ustunlikka ega bo‘ladi. Bu esa Hizbullohga quroq yetkazib berish, Suriyada ta’sirni saqlash va Isroilga qarshi potensial bosim vositalarini kuchaytiradi.

Shuningdek, Selumning ta’kidlashicha, ushbu yo‘lak Eronga tarixiy raqibi bo‘lgan Saudiya Arabiston va boshqa sunniy hukmron davlatlarning ta’siriga qarshi muhim to‘siq vazifasini bajaradi. Ya’ni, Iraq orqali qurilgan strategik ta’sir zonasini

Eronni nafaqat AQSh va G‘arbgan qarshi, balki mintaqadagi sunniy blokka qarshi ham barqaror tayanch bilan ta’minlaydi. Bu jihat Yaqin Sharqdagi sunniy-shia geosiyosiy raqobatining asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Natijada, Selumning qarashlari Eronning Iroqdagagi faoliyati shunchaki ichki siyosiy yoki harbiy manfaat emasligini, balki kengroq mintaqaviy strategik arxitekturaning ajralmas qismi ekanligini ko‘rsatadi.

Turkiya va Eronning diniy asoslari va siyosiy tuzumidagi farqlar Yaqin Sharqdagi qurolli mojarolarning shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Turkiya rasmiy jihatdan sekulyar davlat bo‘lsa-da, AKP (Adolat va Taraqqiyot Partiyasi) hokimiyatga kelganidan keyin diniy madaniyat va islomiy qadriyatlar siyosatga tobora kuchliroq singdirila boshladi. Bu jarayon Turkiyaning tashqi siyosatida ham aks etib, Sunniy-Shia raqobati kontekstida pozitsiyasini belgilashda asosiy fon yaratdi.

Eron esa shia islomini davlat mafkurasi sifatida tan olgan teokratik tuzumdir. Ruhoniylar nazorati ostidagi siyosiy tizim diniy omilni tashqi siyosat va xavfsizlik strategiyasining ajralmas qismiga aylantirgan. Bu tafovut ikki davlatning mintaqaviy siyosiy ittifoqlari va pozitsiyalarida yaqqol ko‘rinadi. 2011-yilda boshlangan Suriyadagi fuqarolar urushidan buyon Turkiya va Eron qarama-qarshi diniy bloklarda ko‘rindi. Turkiya Saudiya Arabistoni, Qatar va boshqa sunniy arab davlatlari bilan bir safda bo‘lib, Suriya muxolifatini siyosiy va moddiy qo‘llab-quvvatladi. Bundan tashqari, Anqara Iroqda ham sunniy kuchlar bilan yumshoqroq aloqada bo‘ldi. Eron esa aksincha, Bashar al-Asad rejimining eng asosiy homiysi bo‘lib, Suriyada Hizbulloh va turli shia guruhlarini safarbar qildi. Iroqda ham shia siyosiy kuchlari va militsiyalarini qo‘llab-quvvatlashi bilan mashhur bo‘ldi. Bu, tabiiyki, ikki davlatni sunniy-shia millatchilik qarama-qarshiligiga olib keldi. Turkiya Prezidenti Rajab Toyyib Erdo‘g'an va sobiq Tashqi ishlar vaziri Mevlut Chovusho‘g‘lu ko‘p marotaba Eronga qarata tanqidiy bayonotlar berib, “Eron Iroq va Suriya bo‘ylab ikki shiaviy davlat yaratishga intilmoqda” deya aybladi. Bunga javoban Eron ham Turkiyani “terroristik guruhlarni qo‘llab-quvvatlash”da aybladi. Natijada, diniy farqlar faqat mafkuraviy masala bo‘lib qolmay, balki real siyosiy va harbiy qarorlarning shakllanishida asosiy determinant sifatida namoyon bo‘ldi. Bu jihatdan, Turkiya va Eronning diniy-sektoral tafovutlari mintaqaviy geosiyosatdagi asosiy qarama-qarshilik chizig‘ini tashkil etadi.

Turkiya va Eron o‘rtasidagi keskin raqobatga qaramay, ba’zi asosiy ustuvor masalalarda ularning manfaatlari to‘qnashmasligi yoki hatto mos tushib qolishini ko‘rishimiz mumkin. Eng yaqqol misol - Kurd muammosi: har ikki davlat PKK va uning turkumidagi separatist tuzilmalarning tarqalishini o‘z milliy xavfsizlikka tahdid deb hisoblaydi. Shu maqsadda ular ba’zida ixtiyoriy kelishuvlarga keladi: masalan, Iroqning 2017-yilgi mustaqillik referendumiga Turkiya va Eron birdek qarshi chiqdi.

Bu voqeа ikki davlat orasida Kurdlarga doir masalalarda hamkorlik uchun misol bo'ldi. Shuningdek, Turkiya va Eron Suriyada ham PKK/PYDga qarshi guruhlarda yer yuzida to'qnashmasa-da, vaqt-vaqt bilan Axborot almashishi, chegarada nazorat choralarini muvofiqlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, ikki mamlakatning pozitsiyalari AQSh va Isroilga doir masalalarda qisman umumiylikni ko'rsatadi. AQSh bo'yicha Turkiya ham, Eron ham o'z mustaqilligini ta'minlash tarafdoi: Turkiya NATO doirasidagi hamkorlikka qaramay, AQShning Suriya va Iroqda PKK/PYDni qo'llab-quvvatlashini tanqid qiladi; Eron esa uzoq yillardan beri AQShni mintaqadagi barqarorlikka tahdid deb baholaydi. Isroil masalasida esa aynan da'vogarlar orasidagi o'xshash pozitsiya yaqqol ko'rindi. Yaqinda Turk rahbari Rajab Toyyib Erdo'g'an Isroilni "terrorchi davlat" deb atab, uning G'azo ustidagi harbiy kampaniyasini tinimsiz qoraladi. Eron oliv rahbari Oliy Lider Oyatulloh Ali Xomanaiy ham G'azo bo'yicha "genotsid" atamasini ishlatisib, bosqinning to'xtatilishini talab qildi. Bu holatlar ikki davlat hokimiyatining Falastin pozitsiyasida hamohangligidan dalolat beradi.

Turkiya va Eron o'rtasidagi munosabatlar o'z mohiyatiga ko'ra **harbiy xavfsizlik va diniy-sektoral raqobat** asosida murakkablik kasb etadi. Ularning qarama-qarshi pozitsiyalari ko'pincha Suriya va Iroqdagi mojarolarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Anqara ko'proq **sunnyi blok** bilan birlashgan holda muxolifat kuchlarini qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, Tehron **shia ittifoqini** mustahkamlab, Assad rejimi va Hizbulloh kabi kuchlar bilan bir safda turdi. Bu esa ikki davlatni diniy-sektoral maydonda qarama-qarshi "qutblar"ga ajratdi. Shu bilan birga, ikki tomonning manfaatlari ayrim hollarda bir nuqtada kesishadi. Masalan, **kurd masalasida** Turkiya ham, Eron ham PKK va PJAK kabi separatistik guruhlarni o'z xavfsizliklariga tahdid deb biladi. Bu ularni chegaralarda ma'lum darajada hamkorlikka undaydi. Xuddi shuningdek, mintaqadagi **AQShning harbiy mavjudligi** ham har ikki davlat uchun xavf sifatida ko'rildi. Eron uni o'zining shia ittifoqiga to'g'ridan-to'g'ri qarshi qaratilgan strategiya deb bilsa, Turkiya suveren hududiy xavfsizlikka tahdid sifatida talqin qiladi. Iqtisodiy sohada ham pragmatik hamkorlik mavjud. Turkiya Eron gazining yirik xaridorlaridan biri bo'lib, ikki tomon tranzit va savdo yo'laklarini kengaytirish orqali sanksiyalar bosimiga qaramasdan savdo hajmini oshirishga harakat qilmoqda. Shu ma'noda, Anqara Tehron uchun mintaqaviy iqtisodiy "eshik" vazifasini bajaradi. Bu holat Yaqin Sharqdagi kuchlar muvozanatini murakkab va o'zgaruvchan saqlab turuvchi eng asosiy omillardan biridir.

XULOSA. Turkiya va Eronning Yaqin Sharqdagi o'zaro aloqalari tarixiy, diniy va geosiyosiy omillar bilan belgilanib, doimiy raqobat va ma'lum darajadagi hamkorlikni o'zida mujassam etadi. Har ikkala davlat mintaqada o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intiladi, biroq umumiyligi tahdidlar va muammolar ko'pincha ularni muloqotga majbur qiladi. Ayniqsa, Suriya inqirozi jarayonida qarashlar turlicha bo'lsa-da, Astana formatida ular muvozanatni saqlash va mojaroni yumshatish yo'lida

hamkorlik qilishga harakat qildilar. Bu holat ularning amaliy siyosatda kelishuvga tayyor ekanini ko'rsatadi.

Iraq va Suriya shimolidagi kurd masalasi esa ikki davlat uchun ham bevosita milliy xavfsizlikka daxldor muammo bo'lib, ayrim paytlarda Turkiya va Eronni yaqinlashtirgan. Chunki har ikkisi ham kurdlarning mustaqil siyosiy kuch sifatida shakllanishini o'z hududiy yaxlitligi uchun xavf sifatida ko'radi. Shu bilan birga, mintaqadagi geoiqtisodiy manfaatlar, xususan energetika loyihalari, gaz va neft tranziti, shuningdek savdo va transport yo'llari bo'yicha hamkorlik ikki tomon o'rtasida aloqalarni yanada mustahkamlaydi.

Shu nuqtai nazaridan qaraganda, Turkiya va Eron munosabatlari faqat qarama-qarshilikka emas, balki pragmatik manfaatlarga asoslangan hamkorlikka ham tayanadi. Ularning bu o'zaro aloqalari mintaqadagi tinchlik va barqarorlikni saqlashda muhim o'rin tutadi. Agar tomonlar o'zaro ishonch choralarini kuchaytirib, iqtisodiy va xavfsizlik masalalarida barqaror mexanizmlar yarata olsalar, bu nafaqat ikki davlat, balki butun Yaqin Sharq mintaqasining kelajagi uchun ham ijobjiy natijalar berishi mumkin.

FOYDALANILGAN MANBA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G. Dalay. Is there really a Turkey-Iran rapprochement?. 2017. <https://www.aljazeera.com/opinions/2017/9/13/is-there-really-a-turkey-iran-rapprochement>
2. M. Nishonov. Toshkent (2004). Yaqin Sharq: muaommo va mojaroning tinch hal etish jarayonlari. b-3
3. Joint statement by Iran, Russia and Turkey on the International Meeting on Syria in Astana, 21-22 December 2017. https://www.mfa.gov.tr/astanada-duzenlenen-suriye-konulu-uluslararası-toplanti-hk-ortak-acıklama_en.en.mfa
4. Joint Statement by Representatives of Iran, Russia and Türkiye on Outcomes of the 22nd International Meeting on Syria in the Astana Format, 11-12 November 2024. <https://www.mfa.gov.tr/iran-rusya-ve-turkiye-temsilcileri-tarafindan-yilan astana-formatindaki-suriye-konulu-22-yuksek-duzeyli-toplanti-ya-iliskin-ortak-bildiri-11-12-kasim-2024.en.mfa>
5. Dr Burcu Ozcelik. An Uneasy Stalemate? Iran and Turkey Manoeuvre in Iraqi Kurdistan. 2024. <https://www.rusi.org/explore-our-research/publications/commentary/uneasy-stalemate-iran-and-turkey-maneuvre-iraqi-kurdistan>
6. No Return: The Civilian Impact of Turkey's Operation Claw-Lightning. 2021. <https://cpt.org/2021/06/07/no-return-civilian-impact-turkeys-operation-claw-lightning>
7. Muhanad Seloom. From Rivals to Allies: Iran's Evolving Role in Iraq's Geopolitics. 2024. https://mecouncil.org/publication_chapters/from-rivals-to-allies-irans-evolving-role-in-iraqs-geopolitics